

ISSN 2181-922X

O'ZBEKISTON

TIL VA MADANIYAT

AMALIY FILOLOGIYA MASALALARI

2024 Vol. 1 (5)

www.aphil.tsuull.uz

Bosh muharrir:

Saodat Muhamedova

Mas'ul kotib:

Elyor Xonnazarov

Tahrir kengashi

Aynur O'zjan (Turkiya), Baydemir Husayn (Turkiya), Alfiya Yusupova (Rossiya), Luiza Samsitova (Rossiya), Almaz Ulvi (Ozarbay-jon), Merveri Ismailova (Ozarbayjon), Abdulhay Sobirov, Shoiri Isayeva, Nargiza Musulmonova, Munira Shodmonova, Oqila Turaqulova, Iroda Azimova, Yekaterina Shirinova, Dilrabo Elova, Xurshida Kadirova, Jumana-zar O'rozov, Xasan Akramov, Ra'no Azizova, Azimjon Davronov.

Jurnal haqida ma'lumot

"O'zbekiston: til va madaniyat. Amaliy filologiya masalalari" seriyasi - Oliy attestatsiya komissiyasi ilmiy nashrlar ro'yxatidagi "O'zbekiston: til va madaniyat" akademik jurnalining ilovasi hisoblanib, unda professor-o'qituvchilar, doktorantlar, stajor-tadqiqotchilar, mustaqil izlanuvchilar, magistrantlarning amaliy tilshunoslik, amaliy adabiyotshunoslik, kompyuter lingvistikasi, o'zbek tilini davlat tili va xorijiy til sifatida o'qitish, nashirlik ishi kabi sohalarga oid tadqiqotlari nashr qilinadi.

Jurnal ilovasi bir yilda ikki marta chop etiladi.

O'zbek, rus va ingliz tillaridagi, shuningdek, boshqa turkiy tillarda yozilgan maqolalar qabul qilinadi.

Jurnalda kitoblarga yozilgan taqrizlar, adabiyotlar sharhi, konferensiyalar hisobotlari va tadqiqot loyihalari natijalari ham e'lon qilinadi.

Mualliflar fikri tahririyat nuqtayi nazaridan farq qilishi mumkin.

"O'zbekiston: til va madaniyat. Amaliy filologiya masalalari" seriyasi 2022-yildan chiqa boshlagan.

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti.

O'zbekiston, Toshkent, Yakkasaroy tumani, Yusuf Xos Hojib ko'chasi, 103.

Email: aphil@tsuull.uz

Website: <http://www.aphil.tsuull.uz>

MUNDARIJA

AMALIY FILOLOGIYA

Mirvari İsmaylova

Azərbaycan, özbək və digər türk dillərinin tədrisində latın qrafikalı müasir türk əlifbalarının rolu 4

Elyor Xonnazarov

Grammatik shakllarda zamon ma'nosining ko'chishi 15

Ян Бай

Об исследовании фразеологизмов в китайском языке 27

Sayalı Cəfərova

Məxtumqulu Fəraqi Türkmən ədəbiyyatının görkəmli nümayəndəsi kimi 39

O'ZBEK TILINI O'QITISH MASALALARI

Dilafroz Xidoyatova

Maktab ta'limida o'zgaruvchan dunyoga tayyorgarlik 45

Екатерина Ширинова

Некоторые принципы и подходы преподавания узбекского языка в многоязычной и поликультурной среде 56

PSIXOLINGVISTIKA

Durdona Abdirayimova

Shaxs psixologiyasi va nutq munosabati tadqiqi 65

SOTSILOGIYA

Xasan Akramov, Raxmatilla Raximov

Begonalashuv va tanazzul sotsiologik muammo sifatida 72

QIYOSIY TILSHUNOSLIK

Şəkər Məmmədova

Azərbaycan və özbək dillərində sinonimlər 83

AMALIY LEKSIKOGRAFIYA

E'tibor Yaxshiyeva

Terminologiyada ekvonimiya hodisasi va ekvonimik munosabat masalasi 90

GRAMMATIK SHAKLLARDA ZAMON MA'NOSINING KO'CHISHI

Elyor Xonnazarov¹

Abstrakt

Maqolada o'zbek tilidagi muayyan bir zamonga xos grammatik shakllarning kontekstga, nutq vaziyatiga bog'liq holda boshqa zamonni anglatish holatlari tahlil qilingan. Zamonlarning ko'chishi yuzasidan o'zbek tilshunosligida amalga oshirilgan ishlarga munosabat bildirilgan. Grammatik shakllarda zamon ma'nosi ko'chishining standart konstruksiyalar tarkibida yuzaga kelish va nutqiy qurshovga bog'lanmagan ko'rinishlari farqlangan. Tahlillarda, statistik ko'rsatkichlarda O'zbek tilining ta'limiy korpusi (uzschoolcorpora.uz) matnlariga tayanilgan. Bir zamonga xos grammatik shaklning kontekstda boshqa bir zamonni anglatishi korpusda avtomatik annotatsiyalash jarayonida xatoliklarga sabab bo'ladi. Zamonlarning ko'chishi bilan bog'liq maqolada keltirilgan holatlarning korpusda avtomatik tahlilini amalga oshirish imkoniyatlari xususida ham ma'lumotlar berilgan.

Kalit so'zlar: *zamon, grammatik shakl, o'tgan zamon, hozirgi zamon, kelasi zamon, kontekst, nutq vaziyati, nutq momenti.*

KIRISH

Til birliklari tahlilida kontekstning roliga tilshunoslik tarixidagi barcha paradigmalarda ularning xususiyatlaridan kelib chiqqan holda e'tibor qaratilgan. Xususan, an'anaviy tilshunoslikda muayyan birlikning tavsifi uning matn tarkibida bajarayotgan vazifasi asosida beriladi. Bunda tilshunos A. G'ulomovning "So'zning haqiqiy hayoti nutq ichidadir" [G'ulomov 1954, 29] degan fikrini eslash o'rinli. Sistem-struktur paradigmada esa birlikning nutqiy ma'nosi xilma-xilligi va cheksizligi hisobiga tavsifda bu ma'noga tayanish har doim ham to'g'ri emasligi ta'kidlanib, ular asosida oraliq va umumiy grammatik ma'nolarni tiklashga ahamiyat beriladi. Biroq bu umumiy grammatik ma'no birlikning turli kontekstlarda voqelangan nutqiy

¹ Xonnazarov Elyor G'ofurovich – filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti katta o'qituvchisi

E-pochta: www.xonnazarov90@mail.ru

ORCID ID: 0000-0002-2778-3784

Iqtibos uchun: Xonnazarov, E. 2024. "Grammatik shakllarda zamon ma'nosining ko'chishi". O'zbekiston: til va madaniyat. Amaliy filologiya masalalari. 1 (5): 15-26.

DOI: 10.52773/tsuull.aphil.2024.1.5/ROLM5804

ma'nolarini umumlashtirish natijasida hosil qilinadi. V.Vinogradov ta'biri bilan aytganda "hamma gap kontekstda, sintagmalarning o'zaro bog'lanishida va munosabatida" [Vinogradov 2001, 451] ko'rindi. Bugungi kunda antroposentrik paradigma doirasidagi tadqiqotlarda ham birlikning qo'llanilishida so'zlovchining ongi, tafakkuri, yoshi, saviyasi, nutqiy vaziyat, ijtimoiy shart-sharoit, milliy-madaniy o'ziga xoslik kabi jihatlarning kontekstda aks etishiga e'tibor qaratiladi.

Grammatik shakl kontekst ta'sirida mohiyatan anglatadigan grammatik ma'nosidan chekinishi, shuningdek, yangi ma'no bo'laklarini qo'shib olishi mumkin. Bu o'zgarishlar matn tarkibidagi turli vositalar, ohang, nutqiy vaziyat talabi bilan amalga oshadi.

ASOSIY QISM

O'zbek tilshunosligida zamon shakllarining qo'llanilishi- da kontekstning ahamiyati zamonlarning ko'chishi, zamonlarning uslubiy xususiyatlari kabi mavzular ostida qisman o'rganilgan. Bu borada A.G'ulomov, A.Sulaymonov, J.Jo'rayeva, A.Hojiyev, M.Sodiqova, J.Abdullajonova, N.Musulmonova kabilarning izlanishlari muhim sanaladi. Ayniqsa, J.Abdullajonovanning tadqiqoti zamon shakllarining uslubiy xususiyatlarini keng ochib berganligi, shuningdek, o'ziga xos amalga oshirilgan ishlarning natijalarini umumlashtirganligi bilan alohida qiymat kasb etadi. Olima zamonning ko'chishi tushunchasini quyidagicha izohlaydi: "Ko'chirishda zamon formasining grammatik ma'nosi, vazifasi kengayib, u boshqa zamon zonasiga ham kiradi. Fe'l zamon ko'rsatkichlarining o'z uzual ma'nolariga asoslangan klassifikatsiyasi bilan uning ko'chma qo'llanilishiga ko'ra bo'lgan klassifikatsiyasi bir-biridan farqli bo'ladi" [Abdullajonova 1993, 94]. Demak, zamonlarning ko'chishida grammatik shakl uzual ma'nosiga ko'ra mansub bo'lgan tasnifdan tashqariga chiqishi va boshqa bir zamon ma'nosini ifodalashi kerak. Zamonlarning uslubiyati nisbatan kengroq bo'lib, bunda grammatik shaklning bir zamon ichida turli ma'nolarni voqelantirishi ham qamrab olinadi. Qayd etish kerakki, har ikki holat, ya'ni grammatik shaklning bir zamon ichida turli ma'nolarni ifodalashi ham, boshqa zamon ma'nosini anglatishi ham muayyan kontekst talabi bilan yuzaga keladi. Aslida zamon ma'nosining ifodalanishida kontekstning ahamiyatini bu ikki holat bilangina chegaralash mumkin emas. Zamonni ifodalovchi grammatik shakllar uzual ma'nosiga ko'ra anglatgan zamon ma'nosi umumiy xarakterda: nutq momentidan oldin, nutq momentida, nutq momentidan keyin bo'ladi. Kontekstdagi vaqt ma'noli so'zlar va birikmalar bu umumiy zamonni konkretlashtiradi, ya'ni o'tgan, hozirgi, kelasi

zamonning aynan qaysi bo'lagiga oidligini ko'rsatadi. Masalan, *bor-dim* fe'lida harakatning nutq momentidan oldin amalga oshirilganligigina ma'lum, biroq kontekstda *kecha bordim* holatida *kecha* so'zi ta'sirida harakatning o'tgan zamonning qaysi bo'lagiga mansubligi ham aniqlashtiriladi.

Biz bu o'rinda zamon shakllarining korpusdagi annotatsiyasiga bevosita ta'sir etuvchi holat – bir zamon shaklining kontekst ta'sirida butunlay boshqa zamon ma'nosini ifodalashiga to'xtalib o'tamiz. Bu asosan so'zlashuv va badiiy uslub doirasidagi matnlarda uchraydi. Kontekst ta'sirida grammatik shaklning mohiyatan anglatadigan zamon ma'nosidan chekinib, boshqa zamon ma'nosini ifodalashining quyidagi turlari kuzatiladi:

1. O'tgan zamon shakli hozirgi zamon ma'nosini anglatadi.
2. O'tgan zamon shakli kelasi zamon ma'nosini anglatadi.
3. Hozirgi zamon shakli o'tgan zamon ma'nosini anglatadi.
4. Hozirgi zamon shakli kelasi zamon ma'nosini anglatadi.
5. Kelasi zamon shakli o'tgan zamon ma'nosini anglatadi.
6. Kelasi zamon shakli hozirgi zamon ma'nosini anglatadi.

O'tgan zamon shakllarining hozirgi zamon ma'nosini ifodalashi. Bu holat asosan -di shakli bilan aloqadorlikda yuzaga keladi. Ehtimol, -di shakli o'tgan zamonning hozirgi zamonga nisbatan yaqin nuqtadagi harakat-holatlarini ifodalashi bunga sabab bo'lishi mumkin.

-di shaklining hozirgi zamon ma'nosini anglatishida qarorning qat'iyligiga urg'u beriladi, nutq momentida davom etayotgan harakat-holat aniq amalga oshadigan tarzda tasvirlanadi. Bu holat ko'proq xalq dostonlarida uchraydi. Masalan: *Ketding, bolam, qavmi-qarindoshingga, Ko'p savdolar tushib bunda boshingga.* (*"Alpomish"dan*) Bu misolda qalmoq elidan jo'nab ketayotgan Barchinga nisbatan otasi Boysarining so'zlari ifodalangan.

E'tiborlisi, bu ma'noda o'tgan zamon shakllari bilan hozirgi zamonning ifodalanishi nutq jarayonida so'zlovchi va tinglovchining ishtirok etishi hisobiga birinchi va ikkinchi shaxs doirasida uchinchi shaxsga qaraganda ko'proq uchraydi.

Hozirgi zamonda davom etayotgan harakatga urg'u berib ta'kidlash maqsadida nutqiy vaziyatga ko'ra o'tgan zamonning -di shaklidan foydalaniladi. Bunda harakatning amalga oshishiga nisbatan ishonchning kuchliligidan garchi u nutq momentida hali davom etayotgan bo'lsa-da tugallangandek ma'lumot beriladi. Bunda -di hozirgi zamonning -yap shakli bilan almasha oladi, biroq -di shaklida ma'no kuchliroq ifodalanadi. Bunday holat og'zaki so'zlashuv uslubi-

da tez-tez uchrab turadi. Masalan:

– *Yana qancha kutamiz?*

– *Ana, keldi!*

-di shakli **bilmadim** fe'li tarkibida kontekstga ko'ra umumiy hozirgi zamon ma'nosini ifodalashi mumkin va bu o'rinda u -a(-y) shakllariga ma'nodosh bo'ladi. Bunda odatda gap tarkibida so'roq olmoshi qo'llanadi: *Bilmadim bugun nima vaj qildi ekan. (A.Qahhor)*

-(i)b shakli *yurmoq, turmoq, o'tirmoq, yotmoq* fe'llari ko'makchi fe'l va holat fe'li vazifasini bajarganda o'tgan zamon ma'nosini ifodalamasligi, balki fe'llarning semantik xususiyatiga bog'liq holda bunda hozirgi zamon ma'nosi anglashilishi haqida oldingi faslda batafsil to'xtalgan edik. Shu bois -(i)b shakli bilan nutq momentidagi harakatning ifodalanishi masalasini bu o'rinda alohida yoritmadik.

-gan shakli o'tgan zamonda boshlangan, biroq natijasi nutq momentida ham mavjud bo'lgan holatlarni anglata oladi. Bunda subyekt fe'l asosidagi holat bilan tavsiflanadi. Masalan: *Qishlog'imiz maktabdan uzoqda joylashgan. Oraliq bir yarim soatlik yo'l. (marifat.uz)*. Mantiqan olib qaralganda, qishloqning hozirgi zamonda ham maktabdan uzoqda joylashganligi anglashiladi. Ko'proq turg'un belgilar, holatlar tasvirida -gan shaklidan hozirgi zamon ma'nosi ham anglashiladi. Bunda holat fe'llari faol qo'llanadi. Masalan: *Britaniyalik Lenni Jonsning tanasi koronavirusga reaksiyasi tufayli butun-lay sarg'aygan. (daryo.uz)*. Bizningcha, -gan shakli mohiyatan hozirgi zamonga natija orqali bog'lash vazifasini bajaradi. Biroq fe'l asosidagi harakat-holat o'tgan zamonga oid. Bu -gan shakli harakat fe'llariga qo'shilganda yaqqol seziladi: *Turmush o'rtog'i Rossiyaga ishlagani ketgan. (kun.uz)* Ketish harakati o'tgan zamonda sodir bo'lgan, turmush o'rtog'ining nutq momentida yonida yo'qligi esa hozirgi zamondagi natija sifatida qaraladi. Demak, -gan shakli fe'l asosidagi ish-harakatning natijasi orqali hozirgi zamonga bog'lansa-da, harakat-holatning o'zi o'tgan zamonga oidligi misollardagi shaklni hozirgi zamon sifatida baholash imkonini bermaydi.

O'tgan zamon shakllarining kelasi zamon ma'nosini ifodalashi. -di shakli kontekst ta'sirida nutq momentiga eng yaqin nuqtadagi kelasi zamondagi harakat-holatlarni ham ifoda etishi mumkin. Nutqimizda tez-tez uchrab turuvchi "*Bo'pti, men ketdim*" tarzidagi gapda qo'llangan *ketdim* so'zida ketish harakati nutq momentidan keyin yuz beradi va tahlilda uni kelasi zamondagi fe'l sifatida ko'rsatish to'g'ri bo'ladi. Misoldagi *ketdim* so'zshaklining aynan kelasi zamonning -a qo'shimchasi bilan ifodalanadigan *ketamanga* nisbatan ma'noviy farqlanishi ham mavjud bo'lib, *ketdim* kelasi za-

monda yuz beradigan harakatning nutq momentiga eng yaqin ekanligini ifoda etadi. Bu qo'llanish nutqimizda faol bo'lib quyidagi misollarda ham -di shakli shu holatni ifodalagan:

Xayr, o'rtoqlar, men ketdim. Diqqat bilan tinglanglar, men boshladim. Ushbu gaplarda bildirish, ogohlantirish ma'nolari ifodalangan.

Qani, bolalar, yozdik. Tez-tez, chopdik. Bu gaplarda esa taklif, da'vat ma'nolari ifodalangan. E'tibor berilsa, bu holat asosan I shaxs birlik va ko'plikda kuzatiladi. Bunda I shaxs birlikda bildirish ma'nosi, I shaxs ko'plikda taklif, undash ma'nolari anglashiladi. Ushbu berilgan misollarning barchasida -di shakli o'rnida kelasi zamonning -a (-y) shaklini qo'llash mumkin.

demoq fe'li *nima* so'roq olmoshi bilan birga qo'llanganda ba'zan unga qo'shilgan -di qo'shimchasi ham kelasi zamon ma'nosini ifodalashga xizmat qiladi. Bunda *demoq* faqat II shaxs birlik va ko'plikda *nima deding, nima dedingiz* kabi birikmalarda kelasi zamon ma'nosini beradi. O'zbek tilining ta'limiy korpusida *nima deding, nima dedingiz* birikmalari 59 o'rinda ishlatilgan bo'lsa, shundan 51 o'rinda kelasi zamon ma'nosi, 8 o'rinda o'tgan zamon ma'nosi anglashilgan. Birikmada kelasi zamonning ifodalanishi 86 %ni tashkil etadi va bu unda kelasi zamon ma'nosi ustuvorligi haqida xulosa qilishga sabab bo'ladi.

– *Maqolamiz avvalidayoq ko'pchilik tomonidan muhokama qilinayotgan "Real" etalonmi, degan savolga javob berib ketsak, nima dedingiz?! (kun.uz)*

-di shaklini bu qo'llanishlarida muayyan vaziyatga munosabat bildirish tinglovchi e'tiboriga havola etiladi va so'zlovchi uni o'zining fikriga qo'shilishini xohlashi mazmuni anglashiladi.

nima so'roq olmoshi bilan birga qo'llangan *qilmoq* fe'liga qo'shilgan -di o'tgan zamon shakli ba'zan kelasi zamon ma'nosini beradi. *Nima qilmoq* birikmasining o'zbek tilining ta'limiy korpusidagi qo'llanilishlari tahlili bu holatning asosan birinchi shaxs doirasida uchrashini ko'rsatdi. Bunda *nima qildim, nima qildik* birikmalari tarkibidagi -di qo'shimchasini -a zamon shakli bilan almashtirish mumkin. Bu qo'llanishlarda birikma turg'unlik kasb etadi. So'zlovchi birikmadan oldingi b/-ib ravishdosh shaklidagi fe'ldan anglashilgan harakat-holatni amalga oshirishdan o'ziga foyda, manfaat yo'qligini ta'kidlash maqsadida undan foydalanadi. *Nima qildim* birikmasining qidiruvidan olingan 47 ta natijadan 19 tasi, *nima qildik* birikmasining qidiruvidan olingan 65 ta natijadan 38 tasida -di shakli kelasi zamon ma'nosini ifodalagan. Birikma tarkibida qo'llangan -di

shaklidan kontekstga ko'ra o'tgan zamon yoki kelasi zamon ma'no-lari anglashiladi. Annotatsiyalash jarayonida ularni farqlash uchun model ishlab chiqishda qo'llanishlardagi umumiy jihatlarni belgilab olish zarur. Ta'limiy korpusda birinchi shaxs birlik doirasidagina ishlatilgan ayrim misollarni keltirib o'tamiz:

1. – *Balki, yana Moskvaga qaytarman, bu yerda kutib **nima qildim**.* (daryo.uz)

2. – *Aldab **nima qildim**, ilk bor Manchesterga kelganimda, shu paytgacha erishganlarimni yo'qotgandek his qilgandim.* (kun.uz)

3. *Denis intervyularida hazil aralash, onasining murabbiyligi unga iqtisodiy tarafdin ham yengillik berishini aytadi. «Ortiqcha pulga murabbiy yollab **nima qildim**», degandi shunday intervyularining birida.* (kun.uz)

4. *Yashirib **nima qildim**, yaqin-yaqingacha juda nochor yashardik.* (xs.uz)

5. *Tanqid uchun o'zgan misol qidirib **nima qildim**, mana, mening o'zim, talabalik yillarimda adabiyot his va idrok mahsuli, nimaiki, qalbiz va badanimiz tomonidan his qilinib, aqlimiz bilan idrok qilindimi, bas, shularning bari chinakam adabiyotning mahsulidir, degan maksimalcha qarashda yurar edim.* (xs.uz)

6. *“Endi bu dunyoda yashab **nima qildim!**” – deya, joynamoz ustidan turardilar...* (xs.uz)

E'tibor berilsa, yuqorida keltirilgan misollar tarkibida *nima qildim* birikmasiga -b, -ib shaklidagi ravishdosh tobelanib kelgan va kelasi zamon ma'nosi anglashilgan. Demak, -(i)b+nima qildim/nima qildik qolipi asosida misollarni umumlashtirish mumkin. Ta'limiy korpusdagi ushbu birikmadan kelasi zamon ma'nosi anglashilgan 58 ta holatning barchasi ushbu qolip asosida hosil qilingan. Bu qolip hosilasidan o'tgan zamon ma'nosi ham anglashilish holatlari bor. Biroq bu nisbatan juda kam bo'lib, 2 o'rindagina uchraydi:

1. – *Xayolingda yo'q-a, xayolingda yo'q!– dedi Jonfig'on kesatib.*

– *Ha, xayolimda bo'lib **nima qildim?*** (A.Qahhor)

2. *Savollar uyilib keladi. Xo'sh, deputat bo'lib **nima qildim?*** (kun.uz)

O'tgan zamon ma'nosining anglashilishi **-(i)b+nima qildim/nima qildik** qolipining jami 60 ta hosilasiga nisbatan atigi 3 %ni tashkil etadi. Qolgan 97% holatda kelasi zamon ma'nosi ifodalanadi. Bu ushbu qolipda kelasi zamon ma'nosi yetakchi ekanligi haqida xulosa qilishga asos bo'ladi.

Shuningdek, **endi** payt ravishi **nima qildim/nima qildik** birikmasi bilan kontekstda birga qo'llanganda, -di kelasi zamon

ma'nosini anglatadi. Bunda qiyin vaziyatda qolgan so'zlovchi(lar) ning bu holatdan chiqish uchun o'yg'a tolishi, boshqalardan maslahat so'rashi ma'nolari anglashiladi.

– *Kursdoshlarim barcha gaplardan xabar topibdi, endi nima qildim?*

-di shaklidan so'ng kelgan *deya ber (deyaver)* so'zi o'tgan zamon ma'nosini kelasi zamonga o'zgartiradi. Masalan: *Xudo ko'rsatmasin, nimadandir ko'ngli to'lmay, ranjib qolsa, ish pachava bo'ldi deyavering. (daryo.uz)*. Bu holatda so'zlovchi -di shakli qo'shilgan fe'l asosidagi harakat-holatning kelajakda yuz berishiga tinglovchining ishonishini shunchalik xohlaydiki, o'tgan zamon shakli orqali go'yoki uni amalga oshgan harakat-holat sifatida tasvirlaydi.

-**gan** o'tgan zamon sifatdoshi egalik shaklini olib, uchinchi shaxs buyruq-istak maylidagi *bo'l* fe'li bilan birga kelganda kelasi zamon ma'nosi anglashiladi. Bunda so'zlovchining kelajakdagi qaror va istaklari ifodalanadi. Annotatsiyalash jarayonida ushbu kelasi zamon ma'nosi -sin shakli ta'sirida yuzaga kelayotganligiga e'tibor qaratiladi. Ta'limiy korpusda 20 ta gap tarkibida -gan shakli kelasi zamon ma'nosini anglatgan. Masalan: — *Sumkangning ahvolini qara! Na dars qilasan, na o'qiysan, na uy vazifasini bajarasan! Hozir o'qimasang, kelajakda qanday kun ko'rasan? Bugun maktabingga **borganim bo'lsin!** (marifat.uz).*

Hozirgi zamon shakllarining o'tgan zamon ma'nosini ifodalashi. Hozirgi zamon shakli orqali o'tgan zamon ma'nosining anglashilishi tarixda bo'lib o'tgan voqea-hodisani hozir bo'layotgandek tinglovchi ko'z o'ngida gavdalantirish bilan bog'liq. Asosan badiiy adabiyot matnlarida uchrovchi bu holatdan muallif oldin bo'lib o'tgan hodisalarni kitobxonga aniqroq tasavvur qildirish maqsadida foydalanadi.

Davomli hozirgi zamon shakllari o'tgan zamon ma'nosida qo'llanganda ham davomiylik ma'nosini saqlab qoladi. Bu davomiylik nutq momenti bilan bog'langan emas, balki o'tgan zamonda davom etgan harakat-holat ifodasi hisoblanadi. Ayni shu jihatdan ular davomli o'tgan zamonning *-r edi (-ar edi)*, *-yotgan edi (-ayotgan edi)*, *-yotib edi (-ayotib edi)*, *-yotir edi (-ayotir edi)*, *-moqda edi* shakllari bilan grammatik sinonimiyani yuzaga keltiradi. Bunda shakllarning nutq momentidan oldingi harakat-holatni anglatishiga kontekstdagi ayrim gaplarning o'tgan zamonda ekanligi, shuningdek, o'tgan zamonga ishora qiluvchi turli leksik vositalar ta'sir ko'rsatadi.

O'tgan zamondagi voqea-hodisani hikoya qilishda so'zlovchi -a (-y), -yap shakllaridagi fe'lni takror qo'llash orqali harakat-holat-

ning davomiylikka ega ekanligiga, takrorlanganligiga urg'u beradi. Bu holatda odatda takror fe'ldan keyingi kesim -a(-y) zamon shaklini olganda undan ham o'tgan zamon ma'nosi anglashiladi. Masalan: *Yo'l bo'ylab ketyapman-ketyapman, odam zoti ko'rinmaydi. Kutamiz-kutamiz, ulardan hech darak yo'q.*

Hozirgi zamonning barcha shakllari kontekstda *qarasa* so'zi ta'sirida o'tgan zamon ma'nosini anglatadi: *Qarasam, meni tushirib qo'ygani qo'lini cho'zib kelyapti. "Voy o'lay" deb tutdan o'zimni tashlab yuboribman. (A.Qahhor).* Bunda kutilmagan harakat-holat ma'nosi ifodalanadi. -sa shakli payt mazmuni bilan bog'langan bo'ladi: *Bir mahal qarasam, qorli yo'lakdan Abdusaid aka yurib kelayotir. (xs.uz)*

Shuningdek, gap tarkibidagi *qay (ne) ko'z bilan ko'rayki, qay (ne) ko'z bilan ko'rsinki* kabi birikmalar ham o'zidan keyin kelgan hozirgi zamon shakllarining o'tgan zamon ma'nosini berishiga ta'sir ko'rsatadi: *Qaytishda ne ko'z bilan ko'rayki, uch-to'rtta yigitlar zo'r berib beton quyishyapti. (xs.uz).* Bunda ham gapdan tasodifan, kutilmaganda yuzaga kelgan harakat-holat ma'nosi anglashiladi.

Yotmoq, yurmoq, o'tirmoq, turmoq fe'llari -ib shakli bilan holat fe'li va ko'makchi fe'l vazifalarida ham hozirgi zamonning sintetik shakllari singari o'tgan zamon ma'nosini ifodalashi mumkin. Bu holat kontekst ta'sirida zamonning ko'chishi hisoblanib, buni ushbu fe'llarning harakat fe'li sifatida o'tgan zamonni anglatishidan farqlash kerak. Masalan: *Spektaklga tushdim, birinchi qatorda o'tiribman. "Sizsiz o'tmas kunlarim" qo'yilayotgan edi. (kun.uz)* Misolda o'tiribman holat fe'li o'laroq o'tgan zamon ma'nosini ifodalagan. Bunda birinchi misolda kontekstdagi *tushdim, qo'yilayotgan edi* so'zlaridagi o'tgan zamon ma'nosi ta'sirida *o'tiribman* fe'li ham hozirgi zamon-dan o'tgan zamonga ko'chgan.

-a (-y) kontekst ta'sirida ikkinchi shaxs bo'lishsizlik shakli bilan yaqinda yuz bergan holat ifodasi uchun o'tgan zamon ma'nosida qo'llanadi: – *Sizga nima bo'ldi? Chaqirsam, qaramaysiz.*

Hozirgi zamon shakllarining kelasi zamon ma'nosini ifodalashi. Kelasi zamon ma'nosining hozirgi zamon shakli orqali ifodalanishi rejalashtirilgan harakatning yaqin kelajakda amalga oshishiga nisbatan so'zlovchida ishonchning kuchliligi bilan aloqador. Bu ishonch shunchalik kuchliki, so'zlovchi harakatni nutq momentida amalga oshayotgandek tasavvur qilib, hozirgi zamon shaklini qo'llaydi. Kontekstdagi umumiy mazmun orqali, shuningdek, kelasi zamonga ishora qiluvchi leksik vositalar orqali harakatning nutq momentidan keyin yuz berishi anglashiladi. Davomli hozirgi zamonning -yap, -yotib, -yotir shakllari orqali kelasi zamon ma'no-

si anglashilishi mumkin. Ayniqsa, -yap shaklidan kelasi zamonni ifodalashda ham keng foydalaniladi. Masalan: «*Aka, avgust oyining falon kuni to'y qilyapmiz. Muxbirsiz, gapingizni olishar? O'sha kuni tokni o'chmaydigan qilishga yordam bering*». (kun.uz) Bu holatda avgust oyining falon kunida to'yning qilinishi aniq rejada bor. *To'y qilamiz* birikmasiga qaraganda *to'y qilyapmiz* birikmasida so'zlovchi harakat-holatning amalga oshishiga qat'iy ishonchini ifodalaydi.

Kelasi zamon shakllarining o'tgan zamon ma'nosini ifodalashi. O'tgan zamonda bo'lib o'tgan voqea-hodisalarni hikoya qilib berishda kelasi zamonning -a(-y) shaklidan keng foydalaniladi. Bunda so'zlovchi tinglovchining holatni aniqroq tasavvur qilishi- ni, ko'z oldiga keltirishini maqsad qiladi. Ertak, rivoyat, afsona, hikoyalarni bayon qilish jarayonida muallif nutqida qo'llangan kelasi zamonning -a(-y) shakli o'tgan zamonning -(i)b shakli bilan ma'nodosh bo'ladi:

Bir kun yigit qizning uyiga kelganida stol ustida turgan chertyojlarga ko'zi tushadi. (A.Qahhor).

O'tgan zamonda bo'lib o'tgan, biroq ko'pchilikka ma'lum bo'lmagan hodisalarni tinglovchilar tasavvurida gavdalandirish uchun ham kelasi zamon shaklidan foydalanish turli jinoyatlar tafsilotini bayon qilishda ham ko'p uchraydi. Bunda -a(-y) shakli o'tgan zamonning -gan shakli bilan ma'nodosh bo'ladi, harakat-holat bevosita kuzatilmagani uchun -di shakli bilan almasha olmaydi: *Karmana tumanining Ayronchi mahallasida yashovchi, 19 yoshli J.K. o'ziga tegishli bo'lgan "Samsung-J-2" va "S-3 mini" uyali telefonlarini sotish uchun Navoiy shahrida joylashgan eski buyumlar bozoriga boradi.* (xs.uz) Bu holatda so'zlovchi -gan o'rnida -a (-y) shaklini qo'llash orqali xabarning ta'sir kuchini oshiradi, hodisalarni tinglovchilar ko'z o'ngida aniqroq gavdalandirishni maqsad qiladi.

Kelasi zamon shakllarining hozirgi zamon ma'nosini ifodalashi. Kelasi zamonning -a (-y), -(a)r shakllari orqali hozirgi zamon ma'nosi ifodalanishi mumkin. Bu o'rinda mazkur shakllarning har ikki zamon uchun umumiy jihatlari borligi alohida e'tibor talab qiladi.

-a(-y) shaklining ham hozirgi zamon, ham kelasi zamon hosil qiluvchi vosita ekanligi haqida yuqorida to'xtaldik. Bu shaklning asosan kelasi zamon ma'nosini voqelantiradigan fe'llarda (masalan, yo'nalma harakat fe'llari) kontekst ta'sirida hozirgi zamon ma'nosini ifodalashi kelasi zamon shaklining hozirgi zamon ma'nosini voqelantirishi sifatida baholanishi kerak. Biroq -a(-y) shaklining odatiy tarzda hozirgi zamonni voqelantiradigan fe'llarda qo'llanilishi (ma-

salan, sevmoq fe'li) hozirgi zamon shaklining hozirgi zamon ma'nosini voqelantirishi sifatida qaralishi lozim. Kelasi zamonning -a(-y) shakli davomli hozirgi zamon ma'nosini ifodalaganda -yap shakli bilan ma'nodosh bo'ladi. Bu holat asosan xalq dostonlarida, so'zlashuv uslubida uchraydi:

*Ko'kaman der: Kashal g'ordan **kelaman**, Ko'llarni sayr etib bunda yuraman...* ("Alpomish" dostonidan).

-(a)r/-mas shakli tarixan umumiy hozirgi zamon ma'nosini anglatgani bois bugungi kunda ko'plab maqollar, matallar, hikmatlar tarkibida hozirgi zamon ma'nosini ifodalaydi: *Boy boyga boqar, suv soyga oqar.* (Maqol). Bunda -(a)r shakli umumiy hozirgi zamonning -a (-y) qo'shimchasiga ma'nodosh bo'ladi. Biroq hozirgi o'zbek adabiy tilida bu shakl asosan kelasi zamon fe'lini hosil qiladi va gumon, taxmin ma'nolarini anglatadi.

-(a)r/-mas shakli **ekan, emish** to'liqsiz fe'llari bilan faol qo'llanadi. Bunda kontekstga aloqador holatda, shuningdek, asosiy fe'lning semantikasiga bog'liq ravishda hozirgi yoki kelasi zamon ma'nolari ifodalanishi mumkin.

1. *Burungi zamonda bitta odam, mening bilishimcha, juda nari borsa uch yarim pud paxta terar edi, hozir yigirma besh pudga yetkazib **terar emish.*** (A.Qahhor).

2. *Shundan uch-to'rt oy burun «Ultarmada g'ulu chiqdi, shahardan soldat kelib ancha odamni haydab ketdi, bularni guberning o'zi **so'roq qilar emish**» degan gap tarqalgan edi.* (A.Qahhor).

Misollarning birinchisida -ar emish hozirgi zamon ma'nosini, ikkinchisida kelasi zamon ma'nosini anglatgan. Hozirgi zamon ma'nosining yuzaga kelishiga kontekstdagi *hozir* so'zi ham ta'sir ko'rsatgan.

Tilshunos Azim Hojiyev "To'liqsiz fe'l o'zicha harakat bildirsa olmasligi sababli fe'llarga xos bo'lishsizlik, daraja, zamon kabi ma'nolarga va bu ma'noni ifodalovchi formalarga ega bo'la olmaydi" [Hojiyev 1973, 57] deya ta'kidlaydi. Bundan kelib chiqadiki, misollardagi *ekan, emish* singari vositalar zamon ma'nosi bilan bog'lanmagan va "eshitib bilinganlik", "noma'lum jihatning ma'lum bo'lganligi" kabi ma'nolarni berishga xizmat qilgan. Ular gapdagi boshqa so'zlar qatori nutq vaziyatini aniqlashtirishga yordam beradi.

XULOSA

Umuman, o'zbek tilida bir zamonga mansub grammatik shaklning kontekst ta'sirida boshqa zamonni ifodalashi ancha keng tarqalgan hodisa bo'lib, avtomatik annotatsiyalashda ular

muammolarni yuzaga keltiradi. Zamonni ifodalovchi grammatik shakllarning korpus matnlarida anglatgan turli ma'nolarini statistik o'rganish va tavsifda o'rganish natijalariga tayanish shakl haqida nisbatan ishonchli ma'lumot beradi. Zamonlarning ko'chishi bilan bog'liq misollardagi umumiyliklarni aniqlash va bu asosda ularning modellarini ishlab chiqish orqali bu muammolarni qisman hal etish mumkin. Biroq butun matn mazmunidan kelib chiqadigan, doimiy sintagmatik munosabatlarga asoslanmagan holda bir zamon shaklining boshqa zamonni anglatish holatlari ham borki, ularni muayyan modellar doirasida qamrab olish mumkin emas. Bunda har bir gap inson tomonidan tahlil qilinib, qo'lda annotatsiyalanishiga zarurat saqlanib qolaveradi.

Adabiyotlar

- Абдуллажонова, Ж. 1993. Феъл замон формаларининг услубий хусусиятлари. Тошкент: Фан.
- Ҳожиев, А. 1973. *Феъл*. Тошкент: Фан.
- Ҳожиев, А. 1975. "*Феъл замонлари*". Ўзбек тили грамматикаси. I. Морфология. Тошкент: Фан. 475-503
- Жўраева, Ж. 1961. *Ҳозирги замон ўзбек адабий тилида келаси замон феъли*: Фил. фан. номз...дисс. Тошкент.
- Муслмонова, Н. 2007. *Грамматик шаклларда категориал, ёндош ва ҳамроҳ маъно (замон ва майл категориялари мисолида)*: Фил.фан.номз...дисс. Тошкент.
- Содиқова, М. 1975. *Феъл стилистикаси*. Тошкент: Фан.
- Сулаймонов, А., А. Ҳожиев, Ж. Жўраева. 1962. *Феъл замонлари*. Тошкент: Фан.
- Виноградов, В. 2001. Русский язык (Грамматическое учение о слове)/ Под. ред. Г. А. Золотовой. – 4-е изд. Москва: Русский язык.
- Ғуломов, А. 1954. *Феъл*. Тошкент: Фан.

TRANSFER OF TENSE MEANING IN GRAMMATICAL FORMS

Khonnazarov Elyor¹

Abstract

The article analyzes the cases in which grammatical forms specific to one tense mean another tense depending on the context and speech situation in Uzbek language. A reaction was expressed to the work done in Uzbek linguistics regarding the transfer of tenses. In grammatical forms, there is a difference between the appearance of the tense meaning shift in standard constructions and those that are not connected to the speech environment. In the analysis, statistical indicators are based on the texts of the educational corpus of the Uzbek language (uzschoolcorpora.uz). The fact that a grammatical form specific to one tense means another tense in the context causes errors in the process of automatic annotation in the corpus. The article also provides information about the possibilities of automatic analysis of cases related to the transition of tenses in the corpus.

Key words: *tense, grammatical form, past tense, present tense, future tense, context, speech situation, moment of speech.*

References

- Abdullajonova, J. 1993. *Fe'l zamon formalarining uslubiy xususiyatlari*. Toshkent: Fan.
- Hojiyev, A. 1973. *Fe'l*. Toshkent: Fan.
- Hojiyev, A. 1975. *"Fe'l zamonlari"*. O'zbek tili grammatikasi. I. Morfologiya. Toshkent: Fan. 475-503
- Jo'rayeva, J. 1961. *Hozirgi zamon o'zbek adabiy tilida kelasi zamon fe'li*: Filol. fan. nomz...diss. Toshkent.
- Musulmonova, N. 2007. *Grammatik shakllarda kategorial, yondosh va hamroh ma'no (zamon va mayl kategoriyalari misolida)*: Fil. fan. nomz... diss. Toshkent.
- Sodiqova, M. 1975. *Fe'l stilistikasi*. Toshkent: Fan.
- Sulaymonov, A., A. Hojiyev, J. Jo'rayeva. 1962. *Fe'l zamonlari*. Toshkent: Fan.
- Vinogradov, V. 2001. *Russkiy yazik (Grammaticheskoye ucheniye o slove)*/ Pod. red. G.A.Zolotovoy. – 4-ye izd. Moskva: Russkiy yazik.
- G'ulomov, A. 1954. *Fe'l*. Toshkent: Fan.

¹ Khonnazarov Elyor Gofurovich – doctor of philosophy (PhD) in philological sciences, senior teacher of Tashkent State University of Uzbek Language and Literature named after Alisher Navoi

E-mail: www.xonnazarov90@mail.ru

ORCID ID: 0000-0002-2778-3784

For citation: Khonnazarov, E. G. 2024. "Transfer of tense meaning in grammatical forms". *Uzbekistan: language and culture. Issues of applied philology*. 1(5): 15-26.

DOI: 10.52773/tsuull.aphil.2024.1.5/ROLM5804

Jurnal 2017-yil 26-oktyabrda O'zbekiston Respublikasi Matbuot
va axborot agentligi tomonidan № 0936 raqam bilan ro'yxatdan o'tgan.
Tahririyatga kelgan maqolalar mualliflarga qaytarilmaydi.

Jurnal O'zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya Komissiyasi tomonidan
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc)
dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalari chop etilishi lozim bo'lgan ro'yxatga
kiritilgan (30.10.2021. № 308/6).

Manzil: Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Yusuf Xos
Hojib ko'chasi 103-uy.
Telefonlar: +99871 281-45-11, +99871 281-41-93.
Website: www.uzlc.navoiy-uni.uz
E-mail: uzlangcult@gmail.com

Bosishga 27.02.2024-yilda ruxsat etildi.
Bichimi 70x100 1/16, Ofset bosma. "Cambria" garniturasida.
Nashr b.t. 7.

"O'zbekiston: til va madaniyat" jurnali tahririyatida
tayyorlandi va sahifalandi.
"YASHNOBOD NASHR" bosmaxonasida chop etildi.
Adadi 300 nusxa. Buyurtma №3.
Bosmaxona manzili: Toshkent shahar Yashnobod tumani,
58-a harbiy shaharcha.